



## 2019 yil yanvar-mart oyida Farg`ona viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


### **RAQAMLAR:**

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **4 143,9 mldr.so`mni**, sanoat ishlab chiqarish indeki **105,5%** ni tashkil etdi
- Iste`mol tovarlari ishlab chiqarishning o`sish sur`ati – **9,0 %**
- Iste`mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi – **25,9%**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **34,3%**
- Faoliyat ko`rsatayotgan sanoat korxonalari soni-**6869** birlikni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 4143,9 mldr.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 105,5 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash - 113,4 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoat – 106,4%, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 88,0 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning - 85,2 % ga o'sishi hisoblanadi.

**2019 yilning yanvar-mart oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda, jami sanoatdagagi ulushi.**



**Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.**



Tog'-kon sanoatida tog'-kon sanoati bilan bog`liq boshqa faoliyat turi hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan – 13,4 % ga oshganligini kuzatish mumkin.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7,8 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ni tashkil etdi.



### Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3954,5 mlrd.so`mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 95,4 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog`ining hajmi -1,6 mlrd.so`mni, (ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi-0,1%), o`rta yuqori texnologiyali – 598,1 mlrd.so`mni, (14,4%), o`rta quyi texnologiyali – 1406,3 mlrd.so`mni, (33,9%) va quyi texnologiyali – 1948,5 mlrd.so`mni, (47,0%) tashkil etdi.

### Yanvar-mart oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo`yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



**Yuqori texnologiyali tarmog`i ishlab chiqarish hajmi- 1,6 mlrd.so`m, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi-0,1%**



**O`rta yuqori texnologiyali tarmog`i ishlab chiqarish hajmi - 598,1 mlrd.so`m, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi-14,4%**



**O`rta quyi texnologiyali tarmog`i ishlab chiqarish hajmi - 1406,6 mlrd.so`m, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi-33,9%**



**Quyi texnologiyali tarmog`i ishlab chiqarish hajmi - 1948,5 mlrd.so`m, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi-47,0%**



O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 12,8 % ga, to`qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 13,2 % ga, terini qayta ishlash 4,0 % ga, qog`oz va qog`oz mahsulotlari ishlab chiqarish 165,0 % ga, kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish 18,4 % ga, mebel ishlab chiqarish 17,1 % ga, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 50,4 % ga, rezina va plastmassa buyumlari ishlab chiqarish 25,3 % ga oshganligini va koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari, metallurgiya sanoati, ichimliklar ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.

### **Yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

<b>2018 yilda ishlab chiqarilgan</b>	<b>Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari</b>	<b>2019 yilda ishlab chiqarilgan</b>	<b>O'sish sur`ati, foizda</b>
--	--	--	---------------------------------------

**Yumshoq bug`doy va spel`ta uni, ming t.**



**36,7**

**39,2**

**107,0**

**Paxta chigit, ming t.**



**44,0**

**44,2**

**100,4**

**2018 yilda  
ishlab  
chiqarilgan**

**Ishlab chiqaradigan sanoat  
mahsulotlari**

**2019 yilda  
ishlab  
chiqarilgan**

**O'sish  
sur'ati,  
foizda**

**Narsa joylanadigan qoplar va paketlar, t.**

**220,3**



**316,5**

**143,7**

**Tabiiy oq va qizil desert uzum vinolari, ming litr.**

**12,1**



**19,0**

**157,0**

**Amoniy nitrat, ming t. azot**

**31,6**



**45,9**

**145,3**

**Superfosfat ming t. P2O5**

**3,1**



**6,6**

**2,1 martta**

**Portlandsement, ming t.**

**143,4**



**211,3**

**147,4**

**Shisha idishlar, mln dona.**

**28,8**



**32,8**

**114,0**

## Elektr, gaz, bug` bilan ta`minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 160,9 mldr. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,9 % ni) tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-mart oylarida sanoatning mazkur tarmog'i o'tgan yilning mos davriga nisbatan 88,0 % ni tashkil etdi.



## Suv bilan ta`minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.




2019 yilning yanvar-mart oylarida sanoatning mazkur tarmog'i o'tgan yilning mos davriga nisbatan 85,2 % ni tashkil etdi.



## **2019 yilning yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi.**

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1073,6 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 9,0 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdag'i ulushi esa 25,9 % ni tashkil etdi.


### **2019 yilning yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**




## **Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.**

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Farg`ona shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 39,0 % ulushini), Qo`qon shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 15,4% ulushini), Quvasoy shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 5,9% ulushini), Marg`ilon shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 3,4% ulushini), Toshloq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 11,6% ulushini), Dang`ara tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 4,0% ulushini), O`zbekiston tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,5% ulushini), Quva tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 3,0% ulushini), Buvayda tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,9% ulushini), Beshariq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,2% ulushini), Bog`dod tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,2% ulushini), Oltiariq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,7% ulushini), Farg`ona tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,2% ulushini), Rishton tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,1% ulushini), Uchko`prik tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,1% ulushini), Qo`shtepa tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 0,8% ulushini), Yozyovon tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,2% ulushini), So`x tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 0,4% ulushini), Furqat tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 0,4% ulushini) hissasiga to`g`ri kelmoqda.

**2019 yil yanvar-mart oyida hududlar bo`yicha sanoat ishlab chiqarilishining  
ulushi, foizda**




**2019 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo`yicha sanoat ishlab chiqarilishining  
hajmlari va viloyatdagi ulushi, %**



### Hududlarning iste`mol tovarlari ishlab chiqarishi.

Viloyat iste`mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi Farg`ona shahar 186,4 mlrd.so`m, Qo`qon shahar 226,1 mlrd.so`m, Quvasoy shahar 56,7 mlrd.so`m, Marg`ilon shahar 84,9 mlrd.so`m, Toshloq tumani 57,4 mlrd.so`m, Dang`ara tumani 34,8 mlrd.so`m, O`zbekiston tumani 44,8 mlrd.so`m, Quva tumani 40,5 mlrd.so`m, Buvayda tumani 24,8 mlrd.so`m, Beshariq tumani 48,9 mlrd.so`m, Bog`dod tumani 45,5 mlrd.so`m, Oltiariq tumanlari 40,5 mlrd.so`m, Farg`ona tumani 32,0 mlrd.so`m, Rishton tumani 44,6 mlrd.so`m, Yozyovon tumani 20,3 mlrd.so`m, Qo`shtepa tumani 25,6 mlrd.so`m, So`x tumani 10,2 mlrd.so`m, Uchko`prik tumani 37,8 mlrd.so`m, Furqat tumani 11,8 mlrd.so`mga, to`g`ri keldi.




**Farg`ona viloyatining 2019 yil yanvar-mart oylarida sanoat mahsulotlari hamda  
xalq iste`mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi**

№	Shaharlar va tumanlar nomi	2019 yil yanvar-mart sanoat ishlab chiqarilishi		2019 yil yanvar-mart aholi jon boshiga	2019 yil yanvar-mart xalq iste`mol tovarlari		2019 yil yanvar-mart aholi jon boshiga
		mlrd.so`m	ulushi, %		ming.so`m	mlrd.so`m	
1	Oltiariq t.	69,7	1,7	336,8	40,5	3,8	195,7
2	Qo`shtepa t.	33,0	0,8	177,3	25,6	2,4	137,6
3	Bog`dod t.	92,1	2,2	438,0	45,5	4,2	216,6
4	Buvayda t.	78,7	1,9	353,5	24,8	2,3	111,5
5	Beshariq t.	92,3	2,2	412,9	48,9	4,6	218,8
6	Quva t.	124,2	3,0	491,2	40,5	3,8	160,0
7	Uchko`prik t.	46,7	1,1	209,0	37,8	3,5	169,3
8	Rishton t.	87,0	2,1	439,9	44,6	4,2	225,5
9	So`x t.	16,3	0,4	213,3	10,2	0,9	133,1
10	Toshloq t.	479,5	11,6	2428,0	57,4	5,3	290,7
11	O`zbekiston t.	101,9	2,5	436,4	44,8	4,2	191,8
12	Farg`ona t.	48,7	1,2	233,9	32,0	3,0	153,5
13	Dang`ara t.	167,2	4,0	986,1	34,8	3,2	205,1
14	Furqat t.	16,8	0,4	144,9	11,8	1,1	101,8
15	Yozyovon t.	48,8	1,2	452,2	20,3	1,9	188,3
16	Farg`ona sh.	1617,0	39,0	5683,6	186,4	17,4	655,2
17	Qo`qon sh.	638,0	15,4	2561,1	226,1	21,1	907,7
18	Quvasoy sh.	244,1	5,9	2658,5	56,7	5,3	617,9
19	Marg`ilon sh.	141,9	3,4	613,1	84,9	7,9	366,8
<b>Viloyat bo`yicha</b>		<b>4143,9</b>	<b>100,0</b>	<b>1123,2</b>	<b>1073,6</b>	<b>100,0</b>	<b>291,0</b>

## Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 34,3 % tashkil etmoqda.

### **2019 yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo`yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %**




## Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.

Bugungi kunda viloyatda 6869 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 1256 tasi Qo`qon shahri, 880 tasi Marg`ilon shahri, 867 tasi Farg`ona shahri, 506 tasi Uchko`prik tumani, 413 tasi O`zbekiston tumani, 358 tasi Dang`ara tumani, 346 tasi Buvayda tumani, 263 tasi Toshloq tumani, 283 tasi Quva tumani, 225 tasi Bog`dod tumani, 236 tasi Oltiariq tumani, 194 tasi Qo`shtepa tumani, 200 tasi Rishton tumani, 176 tasi Farg`ona tumani, 168 tasi Quvasoy shahri, 128 tasi Yozyovon tumani, 132 tasi Furqat tumani, 124 tasi Beshariq tumani, 114 tasi So`x tumaniga to`g`ri keladi.

Joriy yilning yanvar-mart oylarida viloyatda 659 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 65 tasi Qo`qon shahri, 64 tasi Marg`ilon shahri, 74 tasi Farg`ona shahri, 54 tasi Uchko`prik tumani, 33 tasi O`zbekiston tumani, 31 tasi Dang`ara tumani, 52 tasi Buvayda tumani, 25 tasi Toshloq tumani, 60 tasi Quva tumani, 26 tasi Bog`dod tumani, 34 tasi Oltiariq tumani, 18 tasi Qo`shtepa tumani, 34 tasi Rishton tumani, 23 tasi Farg`ona tumani, 21 tasi Quvasoy shahri, 10 tasi Yozyovon tumani, 11 tasi Furqat tumani, 15 tasi Beshariq tumani, 9 tasi So`x tumaniga to`g`ri keladi.

*Farg`ona viloyatida faoliyat ko`rsatayotgan hamda yanvar-mart oylari davomida  
yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlikda*



**Farg`ona viloyat statistika boshqarmasining  
Sanoat statistikasi bo`limi**

Nashr uchun mas'ul:

Aloqa telefoni:

F.Yakubov

(0371) 230-87-19